



АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ
БАШАРИЯТ МАЪНАВИИ-МАЪРИФИЙ
ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ
мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий-амалий конференция
МАТЕРИАЛЛАРИ

MATERIALS
of the IV traditional international scientific conference on the theme
THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE INHERITANCE
OF ALISHER NAVOI IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL
DEVELOPMENT OF THE HUMAN KINDEVELOPMENT OF HUMANITY

МАТЕРИАЛЫ
IV традиционной международной научно-практической конференции на т
МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ
В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ
РАЗВИТИИ

*Навоий – 2021
23 – 25 ноябрь, Ўзбекистон*

ХАЛҚАРО
КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ



НАВОИЙ ВИЛОЯТ ХОКИМЛИГИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВА ВАРЛИГИ
НАВОИЙ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
АЛИШЕР НАВОИЙ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ БИРЛАШМАСИ

**АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ БАШАРИЯТ
МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ**

маълумотидаги IV анъанавий халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2021 йил 23–25 ноябрь, Ўзбекистон, Навоий вилояти)

THE KHAKIMIYAT OF NAVOI REGION (LOCAL
GOVERNMENT)
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
NAVOI STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE
ALISHER NAVOI INTERNATIONAL COMMUNITY
ASSOCIATION

MATERIALS

of the IV traditional international-scientific conference on the theme

**THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE INHERITANCE
OF ALISHER NAVOI IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL
DEVELOPMENT OF HUMANITY**

(November 23–25, 2021, Navoi, Uzbekistan)

ХОКИМИЯТ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
МЕЖДУНАРОДНОЕ ОБЩЕСТВЕННОЕ ОБЪЕДИНЕНИЕ
АЛИШЕРА НАВОИ

МАТЕРИАЛЫ

IV традиционной международной научно-практической конференции на тему
**МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ
В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ
РАЗВИТИИ**

(23–25 ноября 2021 г., Узбекистан, г. Навои)



Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
«Фан» нашриёти давлат корхонаси

Тошкент - 2021

нусхалари таркиби	175
Сурайё Муқимова. "Салтан Исқанларий" да илгари суринган баъзи масалалар	178
Raxima Shatirova. Alisher Navoiy litikasida tabiiat tanozlati talqini	181
Улутбек Сапакулов. Алишер Навоий арификасида вақш ва вақшат ифодалари талқинига доир	184
Акрам Муқимов. Алишер Навоий ижодий меросида кадриятлар талқини	188
Ahfa Si'aniyeva. "Nazm ul-javohir" da hazrat ahi hikmatlarining bahiy sintezi	190
Раифон Санъова. "Шайх Санъон" кассасида маълуматийлик тождари	193
Ўлмасбек Хўжаев. Алишер Навоийнинг "Насойим ул-мухаббат" асарида тибокот тушунчаси	198
Gavhar Istamova. "Nasoyimul-muhabbat" da orifstuyimosti	201
Elmurod Jumayev. Alisher Navoiy ijodida Amir Temur obrazi	203
Sarginoz Nurmonova. Navoiy Robiya Adaviya haqida	206
Gulchehra Mardonova. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga xos aytmijahatlar	208

УЧИНЧИ ШУЪБА: НАВОЙ ИЖОДИЁТИ: МУОСИР АДАБИЁТ ВА ФОЛЬКЛОР

Хотам Умуров. "Олимга Навоий насимаи деган..."	211
Исломжон Якубов, Гузал Атабоева. "Ник ахли" романида тарихий воқеликнинг баъзиди ифодаси	214
Гайрат Муродов. Хазрат Навоий сиймосига янги назар	216
Зариф Қувонгов. Абдурахмон Саъдийнинг навоийшунослигига доир талқиқоти хусусида	220
Puys Istomilov. Pseudo-kallisten an'anasi va Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni	223
Оюда Тоқибоева. "Хамса" дostonларини ўрганишда методларини аҳамияти	226
Гулбахор Ашурова. Заънавий шеърингда Навоий тинсоти	229
Гулбахор Тоқиева. Навоий ва ҳозирги адабий тамоиллар	232
Эмурод Насруллаев. Истиқлол даври навоийшунослигига яратилган талқиқотлар	235
Хамид Мирзаев. Гагал ва сонет жанрларининг ўзаро мунозарак жиҳатлари	237
Дилноза Нузратиллоева. Хуршид Давронини Навоий бағишлаган шеърлари	239
Насиба Норова. Усмои Кўчкор ижодида Навоий образи	241
Олтиной Қурбонова. Навоий хақидаги бадиалар туркуми	245
Барно Байдуллаева. Сирожиддин Саййид шеърингда навоиёна оҳанлар	246
Севиноҳай Ғубова. Фитрат навоийшунослигининг айрим қирралари	249

Олимжон Абдуллоев. Навоийнинг "Саб дostonидаги биринчи хикоятнинг фольклор асослари	250
Ўзлдон Раҳимов. Алишер Навоий ва мақоллар	250
Улутбек Сағиторов. Навоий ижодида фольклор мотивлари	250
Дилфуза Файзиева. Мифология образлари	250
Зебинисо Аҳмедова. "Сабдан сайёр" ва "Сабдан сайёр" романидаги маънавий образлари	250
Dildoraxon Abdullayeva. "Naugat ul-dagi hikoyatlar genezisi va poetik talqini"	250
Барно Мирзаева. Ҳолди Зарифов - навоий шеърини Омидова "Хамса"даги хикоят дидактик хусусиятлари	250
Тоҳир Абдурахмонов. Навоий асарлари илмий кадриятлар	250

ТҮРТИНЧИ ШУЪБА: АЛИШЕР НАВОЙИ ВА АДАБИ МАСАЛАЛАРИ

Низами Мамедов Тағисой. Компаративно-тилшуносчилик нуқтаи назарида "Хамса" Низами ва "Хамса" Эшмак Велиева. Алишер Навоий ва қисми адабиёт	250
Дилнавоз Юсупова. Усмои турк адабиётида Алишер Навоий "Хамса"си	250
Фарида Қаримова. XIX асрнинг биринчи ўзбек шоирлари ижодида Навоий деъонавиислиги наъналари	250
Мавлонберди Сулонов. Навоийнинг ўз татаббуларига доир айрим қайдлар (Хаттаббулари мисолида)	250
Эрган Очилов. Бир мавзунинг турфа шеърлари. Зебо Қўбиллова. Навоийнинг содик шеърлари	250
Баҳтиёр Файзуллоев. Навоий татаббулар бадиияти (Навоий ва Ота татаббулари мисолида)	250
Топагул Матқубова. Адабий издошлар	250
Гулчехра Хўжаева. Аҳмад Юғнакий "ул-хаккойик" дostonининг Алишер Навоий ижодидаги таъсири	250
Назмия Муҳитдинова. Мирхасан Саъдий шеърингда Навоий анъаналарининг бадиий таъсири	250
Шахло Ҳожиева. Алишер Навоий анъаналарининг бадиий таъсири	250
Собира Жўраева. Навоий ва Шукруллоев масаласи	250
Барно Исакова. Навоий ва Фузудийнинг образлари талқини	250
Васила Чўлпева. Навоий асарларидаги таъбирлар	250
Gavhar Muftullayeva. Alisher Navoiy	250

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ НАВОИЙ ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАРКАЗИ
АЛИШЕР НАВОИЙ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ БИРЛАШМАСИ
НАВОИЙ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ-
МАЪРИФИЙ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2021 йил 23-25 ноябр, Ўзбекистон, Навоий шаҳри)

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN THE KHAKIMIYAT OF NAVOI REGION
(LOCAL GOVERNMENT)

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
REPUBLIC CENTER OF SPIRITUALITY AND ENLIGHTMENT
ALISHER NAVOI INTERNATIONAL COMMUNITY ASSOCIATION
NAVOI STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

MATERIALS

of the IV traditional international-scientific conference on the theme
**THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE INHERITANCE OF ALISHER
NAVOI IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF
HUMANITY**

(November 23-25, 2021, Navoi, Uzbekistan)

ХОКИМИЯТ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
РЕСПУБЛИКАНСКИЙ ЦЕНТР ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА
МЕЖДУНАРОДНОЕ ОБЩЕСТВЕННОЕ ОБЪЕДИНЕНИЕ
АЛИШЕРА НАВОИ
НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МАТЕРИАЛЫ

IV традиционной международной научно-практической конференции на тему

**МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В
ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ РАЗВИТИИ**

(23-25 ноября 2021 г., Узбекистан, г. Навои)

PSEVDO-KALLISFEN AN'ANASI VA NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONI

Ilyos ISMOILOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
(O'zbekiston)
e-mail: ismoilov_iles@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jahon adabiyotida muhim o'rin tutuvchi Psevdo-Kallisfen an'anasi va uning sharq adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodiga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Psevdo-Kallisfen, an'ana, Alisher Navoiy, Aleksandr (Iskandar), fol motivi.

Aleksandr Makedonskiy hayotiga oid turli epizodlar (haqiqiy va xayoliy) haqida qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi "Aleksandr romani" o'rta asrlarda juda mashhur bo'lgan. Yunon tilidagi asl matndan Yevropa, Osiyo va Afrikadagi turli tillarga tarjima qilingan. Mana shu jarayonda asarning muallifligi ba'zi qo'lyozmalarda noto'g'ri tarzda yunon tarixchisi, Aleksandrning jiyani Kallisfenga nisbat berilgan, shu bois ushbu asarni "Psevdo-Kallisfen" (Soxta Kallisfen) deb atash ham urf bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Kallisfen haqiqatan saroy tarixchisi bo'lgan va Aleksandrning salnomachisi sifatida faoliyat ko'rsatgan, biroq u Aleksandrning hukmi bilan zindonband etilgan va Aleksandrdan ancha oldin vafot etgan. Tabiiyki, u Aleksandr hayoti va yurishlarini to'liq yoza olmagan. Shu tariqa, noma'lum muallif hanuzgacha "Psevdo-Kallisfen" (Soxta Kallisfen) nomi bilan mashhur.

Aleksandr Makedonskiyning hayoti va yurishlari to'g'risida hikoya qiluvchi bu asarning asl versiyasi milodiy 338-yilga qadar yunon tilida yozilgan. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, romanning yozilishi miloddan avvalgi III asr oxirlaridan boshlangan va milodiy III asr boshlarida qayta to'ldirilgan. Roman garchi tarixiy yadro atrofida qurilgan bo'lsa-da, asosan badiiy to'qima, xayoliy-fantastik to'qimalardan iborat. Uning sujeti asrlar davomida rivojlanib borgan, turli afsonalar va xayoliy elementlarni o'ziga singdirgan. Roman ko'plab nusxalarda ko'chirilgan va tarjimalar qilingan. IV – XVI asrlar orasida "Aleksandr romani" kopt, arab, fors, arman, suriya, ibroniy va o'rta asrlar Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan, mazkur jarayonda asar voqealari son-sanoqsiz o'zgarishlarga uchrab boravergan. Asl yunon romaniga tayanuvchi turli xil asarlar ko'pligi tufayli ba'zan "Aleksandr romani"ga alohida asar emas, balki *adabiy javr* sifatida ham qaraladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, milodiy III asrda tartib berilgan yunoncha matnning eng qadimgi nusxasiga asoslangan boshqa versiyalar orasida suryoniy versiya (VII asr) ham alohida e'tiborga molik. Ayni ushbu versiya "Psevdo-Kallisfen" (Soxta Kallisfen)ning arab versiyalari yuzaga kelishi va Sharqda keng ommalashishiga asosiy omil bo'lgan. Psevdo-Kallisfen an'anasini maxsus tadqiq etgan Faustina Doufikar-Aertsning tasdiqlashicha, Firdavsiyning "Iskandarnoma"

dostoni aynan suryoniy versiya ta'siri ostida yozilgan¹. Ko'pgina sharq tarixchilari ham o'z asarlarida ayni shu versiyaga tayangan. Ayrim manbalar, "Psevdo-Kallisfen"ning pahlaviy versiyasi mavjud bo'lganini ham ko'rsatmoqda.

Firdavsiyning "Iskandarnoma" dostoni sharq adabiyotida masnaviy shaklida yozilgan dastlabki yirik asarlardan biri bo'lib, keyinchalik u ko'pgina iskandarnomalar yaratilishiga asos bo'ldi. Xususan, xamsanavislik an'anasi doirasida yaratilgan barcha iskandarnomalarda bevosita yoki bilvosita ta'sirini ko'rsatdi. Aytish mumkinki, Alisher Navoiy ham "Saddi Iskandariy" dostonini yaratishda ushbu asar bilan yaqindan tanish bo'lgan, qolaversa, Navoiy ko'proq tayangan Nizomiy ham o'z "Iskandarnoma"sini yaratishda Firdavsiydan ta'sirlangan edi. Bizningcha, Psevdo-Kallisfen an'anasi va Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini qiyosiy o'rganishga yetarli asoslar mavjud va bunday yondashuv juda ko'p qiziqarli kuzatishlar, xulosalarga sabab bo'ladi.

Misol uchun, "fol" motivining badiiy transformatsiyasi masalasini tahlil etish ushbu manbalarning qanchalik o'zaro aloqadorligini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Psevdo-Kallisfen"da fol, umuman yo'yimlar juda ko'p uchraydi yoki asar sujetining asoslaridan biri hisoblanadi. "Psevdo-Kallisfen"ning bosh qahramonlaridan biri Nektanebus (so'nggi firavn) kohinsifat odam, munajjim kishi edi va u kelajak haqida fol orqali bilardi. Masalan, dushmanlar hamlasi va ularni qaytarish uchun mis tog'araga yomg'ir suvini to'ldirib, unga kemalar va odamlarning maketlarini solib, o'zining duolarini o'qib, farishtalar va xudolar orqali dushmanlariga qarshi kurashardi. Keyinchalik o'z yurtidan qochib ketgach, Pellaga boradi va u yerda ham bashoratgo'y va munajjim sifatida shuhrat qozonadi, malika Olimpiya huzurida ham fol ochadi. Masalan, Nektanebus Olimpiya bilan qilgan axloqsizliklarini sun'iy tushlar vositasida pardalaydi. Jumladan, Filip urushda bo'lgan paytda Olimpiyaning homilador bo'lib qolishini izohlash uchun sehr orqali Filipga tush ko'rdiradi. Filip tushida o'rta yoshdagi, qo'chqordek shoxlari bor Ammonning Olimpiya bilan yotgani, Olimpiya qornidagi homila o'zining zurriyodi ekani va tug'ilajak bola Olimpiyada va Filip uchun qasos olishini aytganini, Nildek daryo oqayotgani, zig'ir to'qiyotgan odam qiyofasini, Olimpiyadaning qorni oltin uzuk bilan muhrlangani va muhrning ustiga panjasida quyoshni ushlab turgan sher, yonida qamchin va qanotlari bilan pana qilib turgan qarchig'ay tasviri o'yib tushirilganligini ko'radi.

Filip bularni tushida ko'rgach, tongda ta'birchilarni chaqirtirib tushni aytib beradi. Keyin bu tush haqiqatligini, Olimpiyaning xudodan homiladorligini, zig'ir to'qiyotgan odamning nasli misrdan ekani, qornining oltin bilan muhrlanishi o'ta boyligiga ishora ekani, panjasida quyoshni ushlab turgan sher va qamchi uning Sharqqa borishi, sher kabi yurish qilib barcha mamlakatlarni bo'ysundirishi, qamchi bilan shaharlarni olishi hamda u ko'rgan o'rta yoshdagi, boshida shoxli bo'lgan xudo Liviya xudosi Ammon ekani va farzand undan bo'lganini ta'brilashadi². Bunday yo'yimlar epizodi asarda juda ko'p.

¹ Doufkar-Aerts Faustina. Alexander Magnus Arabicus. – Paris – Leuven – Walpole: 2010, Peeters. p. 91.

² The History of Alexander the Great. Being the syriac version of the Pseudo-Callisthenes. Edited from five manuscripts with an english translation and notes by Ernest A. Wallis Budge M.A. – Cambridge. At the university press, 1889. p. 8-9.

Avvalo shuni qayd etish kerakki, sharqda yaratilgan iskandarnomalarda ham fol motivi keng tarqalgan va muhim o'rinlarda undan samarali foydalanilgan. Masalan, xamsanavislik an'anasi doirasidagi iskandarnomalarda keng tasvirlanuvchi ana shunday epizodlardan biri Iskandarning o'z o'limiga oid fol ko'rishi va uning amalga oshishidir. Psevdo-Kallisfenda ham Aleksandrning hayoti haqida fol ko'rish epizodi bor, faqat bu fol Aleksandrning o'zi emas, otasi Filip tomonidan ko'riladi. Unga ko'ra, Filip yozgi oshyonda o'tirganda ko'pgina qushlar uning atrofida don cho'qib yurishar edi, qo'qqisdan bir makyon uning tizzasiga o'tirib tuxum qo'yadi, Filip tuxumni olib yerga qo'yadi va u dumalab borib yoriladi, ichidan kichik ilon chiqib, atrofida aylanib yuradi, so'ng ortiga qaytib, tuxumiga bosh suqishi bilan halok bo'ladi. Filip darrov Antifonni chaqirib, voqea haqida so'raydi. Antifon esa tug'ilajak bola o'g'il bo'lishi, shoh bo'lishi, u butun dunyoni kezib chiqib hamma odamlarni qudrati bilan o'ziga bo'ysundirishi, uni odam mag'lub eta olmasligi, ammo ortga qaytib, o'z yurtiga kelishi bilan bir necha kun ichida vafot etishini aytadi. Uning so'zlariga ko'ra, ilon shohlik belgisi va tuxum – bu butun dunyo; va o'sha yerdan chiqib, uning atrofida aylanib yurgan ilon qaytib kelib, boshini ichiga qo'yganda, darhol o'ldi: xuddi shu tarzda, u butun dunyoni aylanib o'tib, u o'z yurtiga qaytgan vaqtda o'ladi¹. Psevdo-Kallisfenda tasvirlangan ushbu voqeaning sarchashmasi Bibliyada. Bibliyada Danil (Donyor) payg'ambar sharqdan kelgan ikki shoxli qo'chqorni yenguvchi g'arbdan kelgan bir shoxli taka haqida so'zlar ekan, qo'chqorni yengganidan so'ng takaning shoxi tezda sinib, o'midan to'rta shox o'sib chiqishini aytadi va bu – Aleksandrning Doroni yengib, tezda vafot etishi va uning o'mida to'rta sarkardasi hukmronlik qilishiga ishora deydi². Umuman, bunday bashorat-u talqinlar asosida Aleksandrning tarixan juda qisqa umr ko'rgani haqidagi haqiqatga ishora va aloqadorlik yotadi.

“Psevdo-Kallisfen”dagi mazkur epizod Nizomiy “Xamsa”sida biroz o'zgarishlar bilan tasvirlangan, uning bir necha izlarini Navoiy ijodida ham aniq kuzatish mumkin. Birinchidan, Filipning Iskandar kelajagiga oid ko'rgan tuxum bilan bog'liq tasodifiy foliga o'xshash holat Navoiyda ham tasvirlangan. Faqat Navoiy versiyasida bu bashoratni Faylaqus emas, balki Iskandarga dastlabki ta'limni beruvchi ustoz Naqimohus ko'radi. Naqimohus ayn ul-yaqin darajadagi ustoz bo'lib, u Iskandar tug'ilganida burjlar-u yulduzlar holatiga qarab, uning kelajakda butun dunyoni egallashi, barcha ilmlarda tengsiz bo'lishi, tilsimlar bog'lashi, sad qurishi haqida bilgan edi³. Faqat Naqumohis bashoratlarida Iskandarning tezda vafot etishi motivi tushib qolgan, ya'ni Navoiy talqinida mazkur bashorat butunlay islomiy xarakter kasb etgan va shunga muvofiq unda

¹ Shu asar, p.11.

² <http://bibliya-online.ru/kniga-proroka-daniila-glava-8/> (Tarjimasi: https://kitobook.com/web/Maqaddas-Kitob/27_Donyor_MK.html) (10.04.2021)

(Tarjimasi: https://kitobook.com/web/Maqaddas-Kitob/27_Donyor_MK.html) (10.04.2021)

³ Psevdo-Kallisfendagi Nektanebus (Nectanebus) so'zi Navoiy dostonidagi Naqumohis (garchi u tarix manbalaridagi Nikomax (Arastuning otasi) deyilsa ham) ismini yodga soladi, ular o'rtasida o'xshashlik bor. Masalan, Nektanebus ham munajjim, Naqumohis ham “kavokibning iqbol-u ofotig'a” boquvchi, falak sirlarini bilovchi bujumshunos sifatida tasvirlanadi. Faqat Navoiy versiyasida mazkur ism va obraz butunlay farqli badiiy funktsiya bajargan.

“qisqa umr, tezda o‘lish” haqidagi pessimistik nuqtalar optimistik qarashlar bilan almashgan.

Ikkinchidan, Navoiy dostonidagi yana bir epizodda Iskandar o‘zining “oltin osmon va temir yer o‘rtasida vafot etishi”ni faol ko‘radi va bu ish sodir bo‘ladi. Faqat Navoiyda ushbu fol Iskandarning o‘zi tomonidan yoshligida ko‘rilgani aytiladi. “Tuxumdan chiqqan ilonning yana tuxumda vafot etishi” hamda “oltin osmon va temir yer o‘rtasida vafot etish” lavhalari orasida bog‘lanish bor, ularni bir shaxsning o‘limiga oid bashorat ekani birlashtirib turadi, faqat bu yerda tafsilotlar o‘zgarib ketgan.

Uchinchidan, “Psevdo-Kallisfen”dagi mazkur fol epizodida muhim detal, motiv va o‘xshatish mavjud. Bular “makiyon – qush” detali, “tuxum” motivi va tuxumning Yerga o‘xshatilishidir. “Psevdo-Kallisfen”dagi mazkur fol epizodi ko‘p jihatdan “Saddi Iskandariy”da tasvirlangan Doro va Iskandarning o‘zaro turli narsalar vositasida munozara qilgani haqidagi epizodni yodga solidi. U yerda ham voqea “tilla tuxum” shaklidagi bojni so‘rashdan boshlanadi, tilla tuxum qo‘yadigan “qush” uchib ketgani aytiladi va Doro yuborgan “go‘y” Iskandar tomonidan “dunyo” deb talqin etiladi. Ushbu epizodlarda detal, motiv va o‘xshatishlar uyg‘unligidan tashqari voqea-hodisalarga oid yo‘yimlar, ularni izohlash tarzi ham juda o‘xshash. Garchi ikki epizod har ikki asarda turli o‘rinlarda va maqsadlarda keltirilgan bo‘lsa-da, ularning tasvir uslubi va maqsadlari bir xil. Shu bois bu o‘rinda, garchi chalkashlik asosida yuz bergan bo‘lsa-da, detal, motiv va tashbehlar transformatsiyasi haqida gapirish mumkin.

Umuman olganda, Psevdo-Kallisfen an‘anasida, xususan, suryoniy versiyada fol, kelajakni bilishga intilish motivlari juda muhim o‘rin tutadi, chunki Aleksandarning haqiqiy tarixida ham turli fol va tabirlar bilan bog‘liq voqealar juda ko‘p uchraydi. Bu hodisa, shubhasiz, sharqdagi iskandarnomalar, jumladan, “Saddi Iskandariy”da ham o‘z izlarini saqlab qolgan va asarning bir necha o‘rinlarida ushbu motivning turlicha badiiy transformatsiyalarini kuzatish mumkin. Navoiy dostonida saqlanib qolgan fol motivlarining ildizi, bir tomondan, Psevdo-Kallisfendagi fol motivlarining hosilasi va transformatsiyasi sifatida izohlanishi zarur. Faqat Navoiy asarida fol motivi yangicha sharoit va xarakter kasb etgan bo‘lib, bu jihatni alohida tahlil etish kerak.

“ХАМСА” ДОСТОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА МЕТОДЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Озода ТОЖИБОЕВА,

филология фанлари бўйича фалсафа доктори PhD,

*Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети (Ўзбекистон)*

ozoda@navoiy-uni.uz

Аннотация: Мазкур мақолада Алишер Навоийнинг йирик асарларини таҳлил қилишда структурал методнинг имконияти кўрсатилган. Айни дамда структурал методга бўлган муносабатнинг турфа хиллиги, бугунги кундаги аҳамияти масалаларига